



BOLALAR UCHUN SPORT BAYRAMLARINI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Mamatov Avaz Agzamovich

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sport bayramlarini tashkil qilish, uning samaradorligini oshirish, o'tkazish jarayonlari, murabbiy-o'qituvchi va bolalarning tayyorgarligi, hakamlarni tayinlash haqidagi fikrlar yoritilgan*

Kalit so'zlar: *sport musobaqasi, sportchi, tayyorgarlik, musobaqa nizomi, ssenariy, o'tkazish joyi, hakam*

Xalq ta'lim tizimini takomillashtirish masalalari, pedagog kadrlarni tayyorlash, tarbiyalash va o'qitish-o'rgatish metodlari davlat ahamiyatidagi masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda, sababi bu milliy davlat dasturining vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan hamda shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Hozirgi texnikaning rivojlanishi islohotlarning o'zgarishi, zamon talabiga binoan har bir odam o'z bilimini mustaqil boyitishga ega bo'lishlari kerak. Bunday ko'nikma, malakalarni eng kichik yoshdan boshlash lozim. Shu boisdan bolalarning salomatligi, jismonan tayyorgarligi, o'qishga bo'lgan ehtiyoji, uning dunyoqarashini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshlang'ich ta'lim pedagoglarining mahoratiga bog'liq. Bu borada bolalar kun tartibini tashkil etish jarayonlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar uchun murabbiy boshchiligida turli sport bayramlarini o'tkazish; bolalarda jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish, sport bilan oshno bo'lish, o'ziga bo'lgan ishonchning ortishi, begona kishilar bilan tez muloqotga kirishish va do'stlashish ko'nikma, malakalarni shakllantiradi. Bunday bayramlarni tashkil etish bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirib, o'qib-o'rganishga bo'lgan rag'batini kuchaytiradi. Sport bayramlarini tashkil qilish, uning samaradorligini oshirish, o'tkazish jarayonlari murabbiy o'qituvchi va bolalardan katta kuch hamda tayyorgarlikni talab etadi.

Avvalo, har bir o'tkaziladigan sport tadbirlari rejaga kiritilgan bo'lishi kerak, reja pedagogik kengashda tasdiqlanadi, so'ng olib boriladigan sport bayramiga ssenariy yoziladi. Ssenariya ham pedagogik kengashda muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Bu bayramga tayyorgarlik ko'rish ishchi guruhi tuziladi. Chunki o'tkazilayotgan sport bayramining samarali ta'sirini oshirish maqsadida bolalarning safda yurish turlari (chiziqlar bo'ylab yurish, o'rtadan 2-3-4 tadan bo'lib yurish, diagonal bo'ylab yurish, 2 tomondan qarama-qarshi yurish va h.k.), yurish turlarini ko'rsatish (oyoq uchlarida, tovonlarda, kaftning ichki va tashqi tomonlarida yurish, askarcha yurish, katta qadam tashlab yurish, oyoqlarni chalkashtirib yurish, tizzalarni baland ko'tarib yurish va h.k.).

Bolalarning jismoniy tayyorgarligini hamda mashg'ulotlarda o'tilgan materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlash va nazorat qilish maqsadida yakkama-



yakka bellashuv tarzida yugurishlar, estafetalar, sakrashlar, to'plar bilan mashqlar bajarish, turli o'yinlarni o'rganish va bajarish amalga oshiriladi. Shular qatorida aralash mashqlarni ham musobaqa tarzida bajarish maqsadga muvofiq. Bunday tayyorgarliklar, albatta, rejaga muvofiq ssenariy asosida olib boriladi. Ushbu bayramlarni o'tkazishda hakamlar xizmatini ham yoddan chiqarmaslik kerak va ularni alohida tayyorlash lozim. Hakamlar sifatida tarbiyachilar, o'quvchilar va ota-onalarni jalb qilish mumkin.

Sport bayramlarini musiqa ohanglari yordamida tashkil etish ishtirokchilarni ruhlantirish bilan birga g'alabaga bo'lgan ishonchini orttiradi. Shuning uchun eng kichik bolalarga tanish, kayfiyatni ko'taradigan va yoqimli musiqalarni tanlash kerak. Sport bayramlariga tayyorlanish jarayonida musobaqada qo'llaniladigan sport uskunalari, inshootlarni tayyorlashga alohida e'tibor berish lozim. Sport uskunalarining rang-barang bo'lishi bolalar kayfiyatini, qiziqishini, emotsional kayfiyatini oshiradi. Shuningdek, sport bayramini o'tkazish joyini bezatishga tayyorgarlik ko'rishning asosiy qismi hisoblanib, bu jarayonda sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish va bolalar hayotiga xavf soladigan jihozlardan foydalanmaslik kerak. Sport bayramlariga ota-onalarni taklif qilish ishtirokchilarni yanada faol bo'lishi bilan birga, ota-onalarning hamkorlik jarayonlarini mustahkamlaydi. Bunday sport musoboqalarini o'tkazishga tayyorgarliklar ko'p vaqt va kuch talab qiladi.

Sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish murakkab masalalardan biri. Uni tashkil qilish vaqtida tashkilot direktorining qaroriga asosan tashkiliy qo'mita tuziladi. Unga tashkilot rahbarinig o'rinbosari, metodist yoki katta pedagog (rais), jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassis-o'qituvchi, boshqa o'qituvchi-tarbiyachilar, ota-onalar qo'mita a'zolari va boshqalar kiritiladi. Tashkiliy qo'mita ish reja tuzadi, maqsad va vazifalarini aniqlaydi, o'tkazish joyini, vaqtini belgilaydi. Tayyorgarlik ko'rish ishi jarayonida ota-onalardan, homiy tashkilotlardan yoki sport maktablaridan yordamchilar so'rash mumkin. Bajariladigan har bir ishga mas'uliyat bilan qarash kerak.

Eng asosiy vazifalardan biri-bu bayramli chiqishlar dasturi, jismoniy mashqlar majmuasini tuzish, har bitta guruh bilan chiqish mashqlarini tahlil qilish, ayrim sport elementlarini o'rganish, raqs mashqlarini tanlash va o'rganish, repetitsiya o'tkazish chiqishlarni musiqaviy bezatish, sport anjomlari, uskunalari (to'plar, gardishlar, gimnastik tayoqchalar, sharlar, arqonchalar) va sport formalarini ta'minlash hamda emblemalar tanlash. Bulardan tashqari sport bayrami o'tkaziladigan joyni bayramona bezatish, har xil ko'rgazmalar bilan boyitish, fotomontajlar shular jumlasiga kiradi.

Tashkiliy qo'mita o'z ishini sport bayramini o'tkazishga oid muhokama bilan yakunlaydi.

Sport bayramini muvaffaqiyatli o'tishi dasturning aniq, tushunarligi va tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Dasturning ishlab chiqilishi bayramning g'oyasi, mavzusi va mazmunidan kelib chiqishi lozim. Shu jumladan, tashkilotning moddiy



tomonlarini, ishtirok etuvchilarning jismoniy va sport tayyorgarligi, sport tadbirining katta-kichikligi, o'tkazish joyi va vaqtlarini hisobga olish zarur.

Sport bayram dasturini shunday tuzish kerakki, hamma chiqishlar bir-biri bilan bog'langan bo'lishi kerak, orada uzilish bo'lmasligi, takror hamda zerikarli bo'lmasligi lozim, har xil yurishlar, saf mashqlari, gimnastika, akrobatika, turli bellashuvlar, ashula va raqs mashqlari, savol-javoblar va shu kabilar dasturga kiritilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, mashqlarni va chiqishlarni juda ko'paytirib yuborish, takroriy mashqlar yaxshi natijaga olib kelmaydi, bolalarda qiziqish pasayadi.

Sport musobaqasi yoki bayramlarni yutug'i ko'pincha musiqani to'g'ri tanlashda bo'lib, u mashq mazmunini ochib beradigan, uning xarakteri va shakllariga javob beradigan bo'lishi kerak. Musiqa nafaqat sport bayramini to'laqonli o'tishiga, balki har xil chiqishlarga, turli mashqlarni samarali bajarishda ta'sir ko'rsatadi. Musiqa ijro etuvchilarga va taklif qilingan mehmonlarga yoqimli bo'lishi uchun bolalarga va kattalarga tanish bo'lgan musiqa tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. To'g'ri tanlangan musiqa, sport jihozlari va sport bayramini o'tkazish joyi tadbirni yanada samarali ntijaga erishishning asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Agzamovich, M. A. (2021). Monitoring of the Motor Readiness of the Students of the National Guard Courses. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(12), 108-110.
2. Avazbek, M. (2022, October). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА НАРАКАТЛИ О'ЙИНАРНИ ТАШКИЛЛАШНИНГ ДИДАКТИК ПРИНЦИПЛАРИ. In *E Conference Zone* (pp. 32-44).
3. Mekhmonov, R. (2022). MONITORING OF THE INFLUENCE OF HYPODYNAMIC FACTORS AND PHYSICAL PREPARATION OF STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 11-20.
4. Маматов, А. А. (2023). ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Gospodarka i Innowacje.*, 32, 40-43.
5. Aagzamovich, M. A. (2023). О 'QUVCHILAR SALOMATLIGIDA MILLIY НАРАКАТЛИ О 'YINLARINING O 'RNI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(31), 8-13.
6. Агзамович, М. А. (2023). ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.
7. Маматов, А. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(7), 379-384.
8. Qayumovna, R. M. (2021). Examining and monitoring of the impact of hypo dynamic factors on the state of physical fitness in students. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 40-43.



9. Tursinovich, K. A., Mirzaakhmadovna, M. F., & Alijonovich, E. T. (2022). 'Topical issues of pre-university preparation of students in the field of physical culture and sports. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7, 253-255.
10. Mirzaakhmad, M. F. (2023). Development of Pedagogical Culture and Competence of Future Physical Culture Specialists in Higher Educational Institutions. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 62-68.
11. Мамадова, Ф. (2023). ВО 'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELII. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 266-272.
12. Tursinovich, K. A., Mirzaakhmadovna, M. F., & Alijonovich, E. T. (2022). 'Topical issues of pre-university preparation of students in the field of physical culture and sports. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7, 253-255.
13. Azimxo'jayevich, I. I. J. (2022). Training of Personnel in the Field of Physical Education and Sports. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 156-160.
14. Исломов, И. (2023). АНАТОМО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ШКОЛЬНИКОВ МЛАДШЕГО, ПОДРОСТКОВОГО И ЮНОШЕСКОГО ВОЗРАСТА. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 596-600.
15. Исломов, И. А. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ИНТЕРЕСА К ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ. IJODKOR O'QITUVCHII, 3(25), 80-85.
16. Islamov, I. A. J., & Parpiev, O. A. (2020). SOME MODERN PEDAGOGICAL FEATURES OF THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING OF THE TEACHER OF PHYSICAL CULTURE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 313-316.
17. Исломов, И. А., & Джураев, Э. М. (2023). РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СЕМЬЕ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1270-1275.
18. Исломова, Н. Л. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(12), 12-17.
19. Исломов, И. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИГРОВОГО МЕТОДА НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.(ОСОБЕННОСТИ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА). Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(6 Part 3), 176-183.
20. Исломов, И. (2023). ДИНАМИКА ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ ГАНДБОЛИСТОВ В ГРУППАХ НАЧАЛЬНОЙ



ПОДГОТОВКИ. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 723-728.

21. Islomxo, I., & Madaminovich, D. E. (2023). 10-12 YOSHLI SPORTCHILARDA TEZKORLIK SIFATLARINI TARBIYALASHNING NAZARIY VA AMALIY USLUBLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(31), 33-38.

22. Исломов, И. А., & Джураев, Э. М. (2023). ВЛИЯНИЕ ФУТБОЛА НА ФИЗИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ И ЗДОРОВЬЕ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(21), 405-410.

23. Azimxo'jayevich, I. I. J., & Madaminovich, D. E. (2023). O 'RTA MAKTAB O 'QUVCHILARINI JISMONIY TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(21), 225-231.